

O‘XSHATISHLAR – BADIY MATNDAGI ENG FAOL TASVIR VOSITASI

Turakulova Umidaxon Anvarovna,

University of Bussines and Science oliy ta’lim muassasasi

Til va adabiyot ta’limi kafedrası o‘qituvchisi

Gmail: standoffabu202@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘xshatishlarning badiiy asarlarda tutgan o‘rni, ularning asosiy xususiyatlari: turg‘unlik maqomi, milliy me‘yor, yangi bilim, yodda saqlash texnikasi, o‘xshatishlardagi badiiylilik va bo‘yoqdorlik, londalik va ixchamlik, maqsadni anglash va anglatish kabilar haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *o‘xshatishlar, etalon, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz o‘xshatishlar.*

СРАВНЕНИЯ — АКТИВНОЕ СРЕДСТВО ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОСТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Туракулова Умидахон Анваровна

Университет бизнеса и науки

Кафедра языкового и литературного образования, преподаватель

Gmail: standoffabu202@gmail.com

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль сравнений в художественных произведениях, а также их основные особенности: устойчивость, национальная норма, способность передавать новые знания, приемы запоминания, художественная выразительность и колоритность сравнений, краткость и лаконичность, понимание и выражение авторского замысла.*

Ключевые слова: *сравнения, эталон, удачные и неудачные сравнения.*

SIMILES – AN ACTIVE MEANS OF EXPRESSION IN LITERARY TEXTS

Turakulova Umidakhon Anvarovna

University of Business and Science

Department of Language and Literature Education, Lecturer

Gmail: standoffabu202@gmail.com

Annotation: *This article discusses the role of similes in literary works and their main characteristics, such as their stable status, national norms, the ability to convey new knowledge, memorization techniques, artistic expressiveness and colorfulness in similes, brevity and conciseness, as well as understanding and conveying the intended meaning.*

Keywords: *similes, standard model, successful and unsuccessful similes.*

Kirish

Badiiy adabiyotni tasviriy vositalardan xoli tasavvur etib bo'lmaydi. Tasviriy vositalar badiiy matnning tushunarligini, rang-barangligini ta'minlovchi muhim vositalardan sanaladi. O'xshatishlar kutilmagan, yangilikka boy, shu bilan birga noyob hodisalardir. U so'zlovchi tomonidan qo'llanganda tinglovchining diqqatini o'ziga jalb etadi va olinayotgan axborotning uzoq vaqt esda saqlanishini ham ta'minlaydi. Yangi axborot avvalgi egallangan qaysidir bilim bilan mustahkamlanadi. Jo Min Yongning shu mavzuga bag'ishlangan tadqiqot ishida o'xshatishlarga nisbatan shunday fikrlar keltirilgan: "o'xshatish nafaqat tashqi dunyoni bilish usuli, ayni zamonda uni til o'rganish bilan birga, madaniyatni ham o'rganishga imkon beradigan eng samarali usullardan biri deyish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, kishilar kundalik muloqot jarayonida har bir daqiqada olti

marta o'xshatishlardan istifoda etishar ekan. Bu ham o'xshatishlarning til va madaniyatda qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi"[1, 13]. Tasviriy ifodaning bu turi og'zaki uslubda ham, yozma uslubda ham birdek qo'llanishini kuzatish mumkin. Yozma adabiyot hali shakllanib ulgurmagan davrlarda ham xalq og'zaki ijod namunalarida o'xshatishlardan keng foydalanilgan.

Adabiyotlar tahlili

O'xshatishlar fikrni go'zallashtirish bilan birga uning tushunarligini ham oshiradi. Shaxs o'z fikrini bayon etish jarayonida qator o'xshatishlarni qo'llaydi. Bu hol esa uning bilish darajasini, dunyoqarashini va tasavvurini ham belgilaydi. Ayniqsa, shoir va yozuvchilar tomonidan qo'llangan o'xshatishlar xalq orasida keng ommalashadi. Ular xalqning bir vakili sifatida tilning barcha imkoniyatlaridan keng foydalanadilar. Albatta, badiiy asar tasviriy ifodalarsiz bo'lishi mumkin emas, bu vositalar har qanday asarni kitobxon tomonidan sevimli bo'lishiga, omma orasida mashhur bo'lishiga, hatto esda saqlab qolinishiga ham katta imkoniyat yaratadi. Masalan, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Tohir Malik qissalarida ham o'xshatishlarning alohida o'rni seziladi. Adib qahramonlarning tug'ilishidan tortib xarakteri, tashqi ko'rinishi, kiyimi, xulqi, ichki tuyg'ulari, munosabati kabilarning barchasini tasvirlashda o'xshatishlardan keng foydalanadi. "Badiiy adabiyot tilining tasviriy vositasi sanalgan o'xshatish o'zining obrazlilik, tasviriylik, emotsional-ekspressivlik kabi xususiyatlari bilan badiiy asar tilida yaqqol gavdalanib turadi. U badiiy asarning barcha komponentlari: portret, ruhiy kechinma, nutqiy xarakteristika, peyzaj, xarakterlar tasvirida qo'llanadi va badiiy asar yuzaga kelishiga xizmat qiladi"[1, 4]. Bu hol kitobxonlar soniga ham ta'sir etmay qolmaydi. "Asar tilida o'xshatishlar, epitetlar, kinoyalar, mubolag'a va jonlantirish qanchalik xilma-xil va o'rinli ishlatilgan bo'lsa, uning stili qanchalik ravshan va individual bo'lsa, asardan ko'zda tutilgan maqsad ham shunchalik tez ro'yobga chiqadi, ya'ni asarda olg'a surilgan g'oya, shu obraz va badiiy priyomlar vositasida o'quvchilarg'a tez va osonlik bilan yetib boradi"[2, 157].

O'xshatishlar har qanday til egalari uchun keng maydondir. Uning imkoniyatlari muallifga ham kitobxonga ham birdek qulaylik tug'diradi. Muallif o'xshatishlar yordamida oson tushuntira olsa, kitobxon o'xshatish bilan oson anglash imkoniga egadir. "O'xshatishlar, asosan, so'zlashuv va badiiy uslublarda keng qo'llanadi. O'xshatishli qurilmalarda til egalarining tashqi olamni idrok etish usuli namoyon bo'ladi. Ko'proq ilmiy uslubga xos deb qaraluvchi va asosan, to'g'ri ma'nosida qo'llaniladigan terminlar ham ba'zan o'xshatish vositalarini qabul qilib, ekspressivlikni ifodalaydi. Bundan ko'rinadiki, qo'llanilishi ma'lum bir uslub (ilmiy) doirasida chegaralangan terminlar ham badiiy matnda turli uslubiy ma'nolarni ifodalab, nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi"[4, 121]. O'xshatishlardagi yana bir muhim jihat shundan iboratki, unda o'xshatish qo'llovchi (nafaqat yozuvchi va shoirlar, balki oddiy xalq)ning bahosi asosiy o'rinni egallaydi. "Umuman, inson voqelikdagi narsa va hodisalarni kuzatar ekan, ularga baho beradi. U ushbu narsa yoki hodisani yoqtirishi yoki inkor qilishi, hatto yoqtirmasligi ham mumkin. O'xshatishli qurilmalarda ham nutq egasining shu kabi salbiy yoki ijobiy bahosi aks etadi. Ma'lumki, baho so'zlovchining (subyektning) bayon qilinayotgan obyektga munosabatini bildiruvchi vosita bo'lib, deyarli barcha til sathlariga xos bo'lgan hodisadir. O'zbek tilida baho munosabati nominativ ma'no ustiga qo'yilgan aksiologik ma'no orqali yuzaga chiqadi va turli vositalar orqali ifodalanadi"[5, 5]. Inson hayotining har bir daqiqasida va har sohasida o'z o'rniga ega bo'lgan o'xshatishlarning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham "O'xshatish o'zining konkretlashtirish funksiyasi bilan har bir fanda qo'llana oladi"[2, 4]. Har bir sohada o'xshatishlarning xizmati bor. Undan tashqari, o'xshatishlarni qo'sh tig'li qurol deyish ham mumkin. Sababi u qo'llanishi so'zlovchiga ham, tinglovchiga ham maqsadni oson anglash imkonini beradi. "Majoziy ifodalar muloqotning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi. Chunonchi, fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifodalashdan ko'ra, uni o'xshatish yoki metafora vositasida bilvosita ifoda etish orqali muloqot samaradorligini maksimal darajada oshirish mumkin. Maslahat berayotganda yoki kamchiliklar haqida gapirilganda obrazli ifodalar yaxshi natija beradi"[1, 14]. O'xshatishlarni o'rganish davomida uning bir

qator xususiyatlari aniqlandi. Quyida ana shu xususiyatlar haqida ba'zi fikrlar keltiriladi:

1. Obrazlilik, badiiylilik, bo'yoqdorlik, emotsionallik. Ushbu sanalganlar o'xshatish haqidagi eng asosiy xususiyatlardan bo'lib, badiiy matnning qiymati ana shu sanalgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Albatta, bu belgilar faqat o'xshatishlarga xos emas. Bunday xususiyat metafora, sifatlash, ibora kabilarga ham xosdir, ammo o'xshatishlar boshqa tasvir vositalariga qaraganda ancha faol hisoblanadi. "O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Bu muhim va keng qo'llanuvchi vosita tilimizda xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarining natijalari sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, badiiy asarda so'z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi va teran badiiy didining mahsuli sifatida yuzaga keladi"[6, 55]. "*Irmoq adog'iga, yigit tikilib turgan yoqqa qaradi: kun qizarib botyapti. Go'yo ufq qonga belangan, go'yo irmoq qorli emas, qonli cho'qqidan boshlanadi, go'yo bu irmoqdan suv emas, qon oqadi, so'ng kela-kelguncha tinib, suvga o'xshab qoladi...*(Savohil, 103-bet). Keltirilgan parchada adib botayotgan ufqning suvdagi aksini qonga qiyoslagan. Qizillik belgisini ifodalovchi etalonlar orasida qon alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham adib uning qizilligini ufqning rangiga ko'chirgan. Bu esa badiiylilik va ta'sirchanlikka erishishda qo'l kelgan. Umuman olganda, o'xshatishlar "ijodkorlarning mahoratini, xususan, uning tasavvur va xayol olamining boy yoki qashshoqligini ko'rsatib turadi. O'xshatishning vazifasi tasvirlashning sifat va vazifasini ravshanlashtirish, o'tkirlashtirishdan va shu yo'l bilan o'quvchi yoki tinglovchining zavqini uyg'otish, hissiyotlarini qo'zg'ashdan iborat. O'xshatish shoir tasavvurida uning hayajoni natijasida vujudga keladi"[7, 65]. Anglashiladiki, badiiy asarda qo'llangan har qanday tasviriy vositaning tug'ilishiga muallifning tuyg'ulari asos bo'ladi.

2. Ixchamlik va lo'ndalik. Bu xususiyat ham o'xshatishlarga xos bo'lib, unda so'zlovchi o'z fikrini qiynalmay tinglovchiga yetkaza oladi. O'xshatishni

keltirish bilan tasvir ham qisqa bo'ladi, tinglovchida esa noma'lum holatni avvaldan bilingan boshqa holatni eslash bilan qiyinchiliksiz tasavvur qiladi. "O'xshatish – bu so'zlarning qo'llanish cheklovlarini to'ldiradigan usuldir. Ya'ni, cheklangan so'zlar bilan insonning turli his-tuyg'ularini va fikrlarini bevosita ifodalash, haqiqatdan, qiyin kechadi. Shu bois bunday kemptiklikni to'ldirish maqsadida anglatiladigan ma'noni o'xshatiladigan predmet bilan solishtirib, his-tuyg'ularni iloji boricha, to'la-to'kis ifodalashga harakat qilinadi"[1, 18]. – *Hozir ularning quloqlariga dollar qo'rg'oshinday quyilib qolgan. Gap o'tmaydi*[8, 19]. Bu o'rinda o'xshatish tarkibidagi qo'rg'oshin suyuqlik bo'lib, qattiqlik holatiga tez o'tishi mumkin bo'lgan og'ir metaldir, u suyiltirilgan holatida quyilgan joylariga mustahkam o'rinish olish xususiyatiga egaligi bilan boshqa metallardan ajralib turadi. Mazkur o'xshatishda shaxsning dollar (boylik)dan boshqa narsalarga e'tibor qaratmasligi, boshqa narsalar uni qiziqitmasligi quyilgan qo'rg'oshinning holatiga o'xshatilmoqda. Qahramon uchun dollarlar juda muhim va ta'sirli, bu esa ularni haqiqiy muammolarni unutishga yoki boshqa narsalarga e'tibor bermaslikka olib kelgan. So'zlovchi tinglovchiga qarata o'zi yaxshi tanigan shaxsning ayni vaqtdagi ichki holati haqida ushbu o'xshatish yordamida xabar bermoqda. *Qo'rg'oshindek quyilmoq* o'xshatishiga "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"da quyidagicha sharh berilgan: "Qo'rg'oshindek quyilmoq. Hech bir esdan chiqmaydigan darajada xotiraga o'rinishmoq"[9, 311]. Ko'rinadiki, kitobxonga shuncha fikrni aytishdan ko'ra, bitta o'xshatish bilan ixchamlikka erishish mumkin. Bu holat qisqa va lo'ndalikni ta'minlaydi.

3. Maqsadni anglash va anglatish. Muallif tomonidan qo'llangan har qanday o'xshatish uning maqsadini belgilaydi. Kitobxon tomonidan esa muallifning maqsadini anglashga yordam beradi. "*Tepada xira chiroq. Bir tomonda temir panjarali darcha. Bu xonaga dastlab kirganida shu darcha unga umid darvozasi kabi tuyulgan edi*"[10, 6]. Ushbu misol Tohir Malikning "Ozod inson haqida qo'shiq" qissasidan olingan bo'lib, qissa adibning ozodlikdan maxrum etilgan tog'asiga bag'ishlab yozilgan. Ayni misolda tog'asining qamoqdagi og'ir kunlari tasvirlangan. Mahbus qorong'i xonadan kichkinagina

darichasi bor xonaga olib chiqilgandagi holatini kitobxon ko'z o'ngida aniq gavdalandirish maqsadida qo'llangan. Bu o'rinda adibning asar qahramonini to'la his qila olganligini ham anglash mumkin. Qorong'ulikda zerikkan qahramonning tashqi olamga bo'lgan sog'inchini oddiy so'zlar bilan tasvirlash qiyin. Shuning uchun ham adib *umid darvozasidek* o'xshatishini qo'llaydiki, u bilan go'yo orzusi ostonasiga yetib borganini kitobxonga yetkazishni maqsad qilgan. Birorta tasviri vosita, shunchaki, badiiy asar matnini hajman kengaytirish uchun xizmat qilmaydi. Shunday bo'lgani kabi o'xshatishlarda ham muallifning maqsadi kitobxonga demoqchi bo'lganlari mujassamlanadi. *Umid darvozasi kabi tuyulmoq* o'xshatishini o'qigan kitobxonda esa qahramonning hibsda ekanida qanchalar ma'naviy azoblanganini, tashqi olamga bo'lgan sog'inchining qay darajada ekanligini anglashi osonlashadi. Agar adib asar qahramonini to'la his qila olmasa, bu asar matnining tasviriyligini, bo'yoqdorligini, ifodaviyligini tushirib yuboradi. Ta'kidlash lozimki, adib bir vaqtning o'zida ham so'zlovchi, ham tinglovchining o'rnini egallay olmog'i lozim. Adib va kitobxonning ham anglashlari bir xil maqsadni ko'zlashi, bir xil fikrni o'ylashi, bir xil manzarani ko'ra olishi muhim va shart hisoblanadi. Ayni holatni badiiy asarda aks ettirish uchun o'xshatishlar ulkan vazifa bajaradi. Bunday vazifani o'xshatishlar bilan uddalash oson kechadi.

4. Yangi bilim hosil qilish. Bu xususiyat, asosan, erkin o'xshatishlarda namoyon bo'ladi. Sababi, erkin o'xshatish kutilmaganligi bilan kitobxonni o'yga toldiradi, uning tasavvurini qo'zg'aydi. Turg'un o'xshatishlar hamma tomonidan tanilgan, yaxshi bilingan, ko'rilgan bilimlar haqida so'zlaydi. Fikrimizni misol yordamida tushuntirib o'tamiz: "*Derazadan yopirilib kirayotgan quyosh nuri tokchadagi kaftdek ko'zguga urilib, shiftga sapchigancha qotgan. Xontaxta ustida ichilmay sovub qolgan yarim piyola choyga tushgan quyosh nuri esa shiftda beorom yurakdek titraydi*"[11, 82]. Tasavvur qilaylik, kitobxon asarni o'qib bo'lgach so'zlab berish uchun asarning ba'zi o'rinlarida keltirilgan o'xshatishli gaplarni aytish uchun avval etalonni, keyin o'xshayotgan predmet yoki holatni qayta eslaydi, chunki quyosh nuri titramaydi, u tashqi ta'sir sababli to'lqinlanayotgan choyga tushganligi sabab titrashni eslatyapti. Titrash juda ko'p

predmetlarda uchrashi mumkin. Ammo adib aynan yurakka qiyoslamoqda.”[11, 82]. Tasavvur qilaylik, kitobxon asarni o‘qib bo‘lgach so‘zlab berish uchun asarning ba’zi o‘rinlarida keltirilgan o‘xshatishli gaplarni aytish uchun avval etalonni, keyin o‘xshayotgan predmet yoki holatni qayta eslaydi, chunki quyosh nuri titramaydi, u tashqi ta’sir sababli to‘lqinlanayotgan choyga tushganligi sabab titrashni eslatyapti. Titrash juda ko‘p predmetlarda uchrashi mumkin. Ammo adib aynan yurakka qiyoslamoqda. *Dovulning bosh ko‘tarishiga sabab bo‘lgan iqlimning o‘zgarishi issiq va sovuq havo iqlimlarining to‘qnashuvi va magnit to‘lqinlarining harakati kabi o‘nlab ilmiy asoslarni xayolidan o‘tkazdi*[12, 46]. Adib qo‘llagan ushbu o‘xshatishdagi *magnit to‘lqinlarining harakati kabi* etaloni o‘quvchini o‘ylashga va magnit to‘lqinlari haqida ma’lumot olishga qiziqtiradi. Sababi magnit to‘lqinlarining harakati haqidagi bilimga ega bo‘lmay turib matnning shu qasmini tushunib bo‘lmaydi. Magnit to‘lqinlari haqida Vikipediya quyidagilarni o‘qiymiz: “Elektromagnit to‘lqinlar – vaqt bo‘yicha davriy o‘zgaradigan elektromagnit maydon (o‘zaro bog‘langan E elektr va B magnit maydonlar)ning fazoda chekli tezlik bilan tarqalish jarayoni. Elektromagnit to‘lqinlar ko‘ndalang to‘lqinlar bo‘lib, vakuumda $s=300000$ km/s tezlik bilan tarqaladi”[13]. Ko‘rinib turibdiki, adib qo‘llagan o‘xshatish qahramonning fikrlari almashinuvidagi tezlikni magnit to‘lqinlari harakatiga qiyoslagan va kitobxonga yangi bilim taqdim eta olgan.

5. O‘xshatishlar yodda saqlash texnikasi sifatida. O‘xshatishlarga xos mazkur xususiyat egallanayotgan yangi bilimlarning esda saqlanishiga yordam beradi. Bu haqda D.Karnegi aytgan fikrlarni keltiramiz: “O‘xshatishlar kutilmagan va noyob vositadir. U tinglovchining diqqatini tortadi hamda uzoq esda saqlanib qoladi”[14, 442]. Demak, o‘xshatishlar serqirra va sermahsul vositalar bo‘lib, ular nafaqat tinglovchini, balki, biror bir yangilikni kuzatayotgan shaxsda ham nimagadir qiyoslab esda saqlab qolishiga yordam beradi. *“Derazadan yopirilib kirayotgan quyosh nuri tokchadagi kaftdek ko‘zguga urilib, shiftga sapchigancha qotgan. Xontaxta ustida ichilmay sovub qolgan yarim piyola choyga tushgan quyosh nuri esa shiftda beorom yurakdek titraydi”*[15, 82]. Tasavvur qilaylik,

kitobxon asarni o'qib bo'lgach so'zlab berish uchun asarning ba'zi o'rinlarida keltirilgan o'xshatishli gaplarni aytish uchun avval etalonni, keyin o'xshayotgan predmet yoki holatni qayta eslaydi, chunki quyosh nuri titramaydi, u tashqi ta'sir sababli to'liqlanayotgan choyga tushganligi sabab titrashni eslatyapti. Titrash juda ko'p predmetlarda uchrashi mumkin. Ammo adib aynan yurakka qiyoslamoqda.

6. O'xshatishlar milliy me'yor, milliy o'lchov, xalq haqida so'zlovchi ko'zgudir. O'xshatishlarning bu xususiyati haqida bir qator xorij va o'zbek tilshunoslari, xususan, V.Maslova[16], L.Balashov[17], N.Alefirenko[18], N.Mahmudov[19], G.Tokarev[20] kabilar o'zlarining fikrlarini bildirganlar. Bu mavzu haqida Jo Min Yong ham o'z fikrlarini bildirgan: "o'xshatishlar olamni bilishning eng eski usullaridan bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tajribalari, milliy madaniyat, urf-odatlar, an'analar asosida shakllanadi. O'xshatish muayyan xalqning milliy tafakkur tarzi va tasavvurlarini namoyon etadi. Shuningdek, o'xshatish idrok etish jarayonini kengaytirishga va yangi ma'nolarni yaratishga yordam beradi, muloqotning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi. Umuman, o'xshatishlarni o'rganish orqali madaniy ma'lumotlar va milliy-madaniy qarashlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin"[1, 19]. Haqiqatan ham, biror millat haqida to'liqroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning madaniyatini, madaniyatidan xabardor bo'lish uchun tilini, unda aks etgan turg'un birikmalarini, tasviriy vositalarini yaxshiroq bilish shart. Tilning o'zini bilish bir millar haqida gapirishga yetarli emas. Xalq madaniyati bilan xalqdir. F.Usmanov o'z ishida "Mantiqiy ildizlarga ega lisoniy birlik – o'xshatish yoki komparativ troplar millatning dunyoqarashini, idrok intizomini aks ettiruvchi muhim manbadir. Milliy idrok intizomi esa, o'z navbatida, milliy til orqaligina anglanishi mumkin. Masalan, o'zbeklardagi kichik narsa yoki joyga nisbatan qo'llanuvchi *ushoqdek* yoki *angishvonadek* o'xshatishlari milliy idrok intizomini o'zida yaqqol namoyon etadi"[21, 39] degan edi. Anglaganimizdek, muayyan xalqqa mansub o'xshatishlar qaysidir ma'noda xalq tajribasidan ham darak beradi. Masalan, o'zbek xalqining hayotiy tajribalari natijasida qo'yning yuvvoshligi, otning chopqirligi, bolaning

beg‘uborligi, baqaning qotib turishi, oyning go‘zalligi kabi holat-xususiyatlar bir qator o‘xshatishlarni yuzaga keltirgan. Albatta, o‘xshatishlarning vujudga kelishi uchun qanday tajriba kerak, degan savol tug‘ilishi mumkin, boshqa uy hayvonlarining parvarishi jarayonida qo‘yning yovvoshligi, otning chopqirligi bilingan, agar uy hayvoni sifatida faqat qo‘y boqilganda edi, undagi yovvoshlik ko‘zga tashlanmasdi. Biror predmetdagi o‘ziga xos xususiyatni anglash uchun uni taqqoslashga sharoit bo‘lishi kerak. Shunday qilib, har qanday xalq bir turdagi narsa-buyumlarni o‘zi bilmagan holda ustunlik tarafini anglayveradi, ana shu ustunlik uning taqdirida turg‘unlik hosil bo‘lishiga xizmat qiladi. “Aytish mumkinki, metafora, o‘xshatish hamda iboralarni birlashtirib turgan narsa – ularning barchasi inson ongiga xos bo‘lgan qiyoslash-o‘xshatish amaliyotiga asoslanadi. Shu bois o‘xshatishlar mantiq, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabi fanlar uchun tadqiqot obyekti bo‘la oladi. Tilshunoslikda qiyoslash keng ma’noda ma’lum bir millatning tarixiy taraqqiyoti natijasida ega bo‘lingan bilimlarining natijalari aks etgan lisoniy o‘xshashlik sifatida talqin etiladi. Psixologiyada qiyoslash amaliyoti inson tomonidan tevarak olamni, unda o‘zining o‘rnini idrok etishdagi, shuningdek, kognitiv kommunikativ masalalar yechimiga qaratilgan eng muhim operatsiyalardan biri sifatida tan olinadi. Har qanday mantiqiy baho munosabatining asosida aynan shu operatsiya yotadi, deb hisoblanadi”[21, 31]. Demak, taqqoslash, qiyoslash inson hayotining ajralmas qismidir. Protagor: “Inson barcha narsalarning me’yoridir”[21, 20] deganda judayam haq edi. Inson, eng avvalo, o‘zini, tanasining har bir a’zosini bilganchalik boshqa narsalarni bilmaydi. Shuning uchun ham tandirning og‘zi, ariqning boshi, stolning oyog‘i, uzukning ko‘zi kabilar taqqoslashlar natijasida yuzaga kelgan. Binobarin, o‘xshatishlar xalq madaniyati haqida so‘zlagichdir. Ularda xalqning munosabati, quvonchi, g‘azabi, moyilligi, roziligi yoki noroziligi kabilar o‘z ifodasini topadi.

Ayni mavzu yuzasidan adabiyotlarni ko‘zdan kechirganimizda, ba’zi adiblarning noo‘rin o‘xshatish qo‘llash hollari ham mavjudligiga guvoh bo‘ldik. Bunday o‘xshatishlarni X.Doniyorov va B.Yo‘ldoshevlar o‘zlarining “Adabiy til va badiiy stil” nomli kitoblarida “muvaqqiyatsiz chiqqan o‘xshatishlar” deb

nomlaydilar. Bunday o'xshatishga misol tariqasida yozuvchi Hamid G'ulomning "Mash'al" romanidan ba'zi o'xshatishlarni keltiradilar: "Romanning 62-betida E'zozxonning anorday yuragida keyingi 3 hafta ichida allaqancha o'zgarishlar bo'ldi, deb yozilgan. Ma'lumki, yurak odatda anordan katta bo'lmaydi. Shuning uchun ham uning kichikligini anorga o'xshatib bo'rttirish to'g'ri emas. Asarning 265-betida avtor ayrilishni zulukka o'xshatsa bo'ladi, odamning qonini, darmonini so'rib, juda bo'shashtirib qo'yadi, deb yozgan. Bu yerda ayriliqning zulukka o'xshatilishi unchalik muvaffaqiyatli chiqmagan. Ayriliq bilan zuluk har xil tushunchadir. Biri jonsiz mavhum tushuncha bo'lsa, ikkinchisi jonli konkret tushunchadir. Bizningcha, ushbu o'rinda avtor ayriliqni E'zozxonning tasavvurida jonlantirib zulukka aylantirganda edi, ajoyib majozli jonlantirish priyomini hosil qilgan bo'lar edi" [2, 169]. Tohir Malik asarlarini o'rganish davomida muvaffaqiyatsiz chiqqan o'xshatishlar uchramaydi. Adib har bir o'xshatishni sinchikovlik va o'ta noziklik bilan tanlagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni yoritishda tavsiflash, qiyoslash va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O'xshatishlar haqida gap ketar ekan, ular orqali asarda namoyon bo'ladigan badiiylik darajasi, milliy koloritning namoyon bo'lishi kabilar yodga olinadi. Albatta, bu jarayonda shoir va yozuvchilarning roli katta. Ularning mehnatlari sabab xalq tili sayqallanib boradi va adabiy tilga aylanadi. M.Gorkiy ta'biri bilan aytganda "Adabiy til – so'z ustalari tomonidan silliqashtirilgan xalq tilidir"[22, 41]. Har qanday adabiy tilning rivojlanishi va sayqallanishi o'sha tilda ijod qiladigan so'z san'atkorlarining ijod namunalari bilan bog'liq. "Yozuvchi yoki shoir iloji boricha yangi-yangi original o'xshatishlar topa olishi bilan o'z asarlarining qimmatini yanada oshira olishi mumkin. Shablon o'xshatishlardan foydalanish yoki hadeb bo'lar bo'lmasga zo'rma-zo'raki o'xshatishlarni qo'llay berish ham asar qimmatini pasaytiradi, o'quvchini zeriktiradi"[21,21]. Badiiy matn tarkibida kelgan o'xshatishlar kitobxonda tez tasavvur uyg'ota olishi kerak, chunki

ogʻzaki nutqda tinglovchiga tushunarsiz tuyulgan oʻxshatishga soʻzlovchi tomonidan kengroq sharh talab qilish mumkin, ammo badiiy asar oʻqiyotgan kitobxonda bunday imkoniyat yoʻq. Shuning uchun ham muallif tomonidan tanlangan oʻxshatish etaloni sodda, taniqli, ammo boʻyoqdorlikni ifoda etadigan predmet boʻlishi shart. Murakkab harakatlar, tushunilishi qiyin boʻlgan holatlar etalon sifatida olinsa, oʻquvchida tushunish qiyinchiligini paydo qiladi. Bu esa oʻz navbatida asarning keng tarqalishiga ham toʻsqinlik qilishi mumkin. Sababi asarni oʻqib undan estetik zavq ola bilgan kitobxon uni oʻz tanishlariga tavsiya etadi, maqtaydi, natijada kitobxonlar orasida tez tarqaladi va mashhurlik sari odimlaydi.

Shunga oʻxshash fikrlarni taniqli adib Abdulla Qahhor hikoyanavis Maʼruf Hakim haqidagi mulohazalarida keltiradi: “Uning oʻxshatishlari ham aksar oʻxshatishlardan koʻzda tutiladigan maqsadga javob bermaydi. Gorkiy qomat xunuk, semiz bir qizni bir qop tarvuzga oʻxshatadi. Kitobxon qopga tarvuz solib koʻrmagan taqdirda ham darrov koʻz oldiga keltiradi. Gogol birovning yuzini kurakka, yana birovning yuzini bodringga oʻxshatadi. Bodring bilan kurakni kitobxon juda yaxshi biladi. Bulardan koʻrinadiki, oʻquvchiga oz maʼlum yoki mutlaqo maʼlum boʻlmagan narsa unga juda ham maʼlum boʻlgan narsaga oʻxshatilishi kerak. Oʻxshatish adabiy asarda juda katta oʻrin tutadi, lekin u kitobxonning tez anglashiga, tasavvur qilishiga yordam bermasa, hech qanday ahamiyatga ega boʻlmaydi”[3, 42].

Xulosa

Demak, oʻxshatishlar badiiy adabiyotdagi asosiy tasvir vositasi boʻlib, kitobxonga tasvirlash kerak boʻlgan manzarani chizishning eng qulay va oson qurolidir. Undan tashqari, yangilikni anglash, xulosa yasash uchun ham qoʻllanma boʻla oladi. Ular orqali muallifni yaxshiroq anglash va hatto kayfiyatini his etish mumkin. Bu tasvir vositasi kitobxonga estetik zavq bagʻishlash bilan birga undagi tasavvurni uygʻotadi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2022. – В. 13.
2. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – В. 4.
3. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. – Тошкент: Фан, 1988. – В. 157.
4. Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокултурологик хусусиятлари: Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 121.
5. Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 5.
6. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 99.
7. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 65.
8. Tohir Malik. Iblis devori. – Toshkent: Sharq, 2006. – В. 19 (keyingi shu manbalardan olingan o‘rinlarda qissaning nomi va sahifasi ko‘rsatiladi).
9. Маҳмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – В. 311.
10. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/tohir-malik-1946/tohir-malik-ozod-inson-haqida-qo-shiq-qissa>. Tohir Malik. Ozod inson haqida qo‘shiq. – В. 6. (keyingi shu manbalardan olingan o‘rinlarda qissaning nomi va sahifasi ko‘rsatiladi).
11. <https://library-samdukf.uz/product/tohir-malik-songgi-oq-qissa/>. Tohir Malik. So‘nggi o‘q. – В. 82.
12. Tohir Malik. Eng kichik jinoyat. – Toshkent. – Ma‘naviyat, 2009. – В. 46
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Elektromagnit_to%CA%BBlqinlar.
14. Карнеги Д. Как вырабатывать уверенность в себе и илиять ил людей выступая публично. – Москва: Прогрес, 1990. – 442 б.
15. Маслова В.А. Лингвокультурология. – 4-е изд., стер. – Москва: Академия, 2010.
16. Балашов Л. Человек – мера всех вещей // <https://lev-balashov.livejournal.com/23289.html>
17. Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. – Москва: Флинта, Наука, 2005.
18. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – № 3.
19. Токарев Г.В. Лингвокультурология. – Тула: Издательство ТГПУ им. Л. Н. Толстого, 2009.
20. Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – В. 39.

21.Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – В. 21.